

Comparative Analysis Of Phraseological Units In Uzbekistan And English

Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi

Senior Lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

Madinabonu Bahodirova

Fergana State University, Faculty of Foreign Languages

Philology and Language Teaching: English

2nd year student

Annotation

This article analyzes common phraseological units in Uzbek and English, highlighting similarities and differences in meaning and use. The main attention is paid to the difficulties that arise in the process of translating phraseological units from one language to another and issues of lexical equivalence. The results of the study serve to deepen understanding of both languages and reveal important aspects of interlingual phraseology.

Keywords: Phraseological units, English phraseologisms, Uzbek phraseologisms, linguistic analysis, semantic differences, idiomatic expressions.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi keng tarqalgan frazeologik birliklar tahlil qilinib, ma'nosi hamda qo'llanishidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritiladi. Asosiy e'tibor frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda leksik ekvivalentlik masalalariga qaratiladi. Tadqiqot natijalari har ikki tilni chuqurroq anglashga xizmat qiladi va tillararo frazeologiyani muhim jihatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, ingliz tili frazeologizmlari, o'zbek tili frazeologizmlari, lingvistik tahlil, semantik farqlar, idiomatik ifodalar.

Frazeologik birliklar tilning obrazli va milliy-madaniy qatlamini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois frazeologizmlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki lingvomadaniy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, har ikkala tilda ham mazmunan yaqin yoki o'xshash frazeologik birliklar uchraydi. Biroq ularning shakliy tuzilishi, semantik ko'lami hamda qo'llanish xususiyatlarida muayyan farqlar mavjud. Mazkur jihatlar frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, frazeologik birliklarni to'g'ri talqin va tarjima qilishga ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligida rus olimlaridan A.Kunin, V.Vinogradov, N.Shanskiy bu masalada tadqiqot olib borgan¹. Jumladan, A.Kunin frazeologik birliklar kelib chiqishi, semantikasi, tarjimasini va madaniy jihatlarini chuqur tahlil qilib, ta'riflab bergan².

Bir qator o'zbek olimlari ham frazeologik birliklar ustida tadqiqot olib borishgan. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Yusupovlar bu borada o'z fikrlarini bildirishgan.³

Frazeologik birliklar (idiomalar) tilshunoslikda turli mezonlar asosida tahlilqilingan bo'lib, ularning tasniflash masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Frazeologik birliklarni

¹ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). — М.: Высшая школа, 1972. — 639 с.; Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977. — С. 140–161; Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.; Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. — М.: Высшая школа, 1985. — 160 с.

² Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.

³ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1978. — 320 б.; Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 224 б.; Yusupov A. English-Uzbek Idioms Dictionary. — Т.: O'qituvchi, 1998. — 256 p.

guruhlashda asosan semantik yaxlitlik, strukturaviy tuzilish, funksional xususiyat va uslubiy belgilarga tayaniladi.

Frazeologik birliklarning eng mashhur tasniflaridan biri V.V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan⁴. U frazeologik birliklarni semantik darajasiga ko'ra uch guruhga ajratadi: frazeologik chatishmalar, frazeologik birliklar va frazeologik qo'shilmalar. Frazeologik chatishmalarda ma'no to'liq ko'chma bo'lib, tarkibiy qismlar o'z mustaqil ma'nosini yo'qotadi. Frazeologik birliklarda esa obrazlilik saqlanadi va umumiy ma'no bilan komponentlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud bo'ladi. Frazeologik qo'shilmalarda esa komponentlardan biri ko'chma ma'noda qo'llanadi, shu sababli ularning umumiy ma'nosi nisbatan tushunarliroq hisoblanadi. Ushbu tasnif idiomatiklik darajasini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologiyani struktur-semantik va funksional jihatdan o'rganishda A.V. Kuninning hissasi katta⁵. U frazeologik birliklarni nutqdagi vazifasiga ko'ra nominativ, nominativ-kommunikativ, kommunikativ hamda interjeksion turlarga ajratadi. Bu yondashuv idiomalarning nafaqat ma'no, balki kommunikativ vazifasini ham yoritib beradi. Xususan, kommunikativ frazeologik birliklar mustaqil hukm sifatida qo'llanadi.

Frazeologik birliklar til tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy tafakkurini o'zida mujassam etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ushbu birliklarning semantik, strukturaviy hamda lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Har ikki tilda frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega bo'lib, ularning umumiy ma'nosi tarkibiy qismlar ma'nosidan kelib chiqmaydi yoki qisman kelib chiqadi.

Semantik jihatdan qaralganda, ingliz va o'zbek tillarida to'liq, qisman va nol ekvivalent frazeologik birliklar mavjud. To'liq ekvivalent birliklar ma'no va obraz jihatdan bir-biriga yaqin bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "To kill two birds with one stone" iborasi o'zbek tilidagi "Bir o'q bilan ikki quyovni urmoq" frazeologizmi bilan semantik jihatdan mos keladi. Har ikkala birlik bir harakat orqali ikki natijaga erishish ma'nosini anglatadi. Bunday birliklar tarjima jarayonida nisbatan kam muammo tug'diradi.

Qisman ekvivalent frazeologizmlar esa umumiy ma'nosi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, obraz va ifoda vositalarida farqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi "When pigs fly" iborasi o'zbek tilidagi "Tuyaning dumi yerga tekkanda" birligi bilan ma'nodosh hisoblanadi. Ikkala ibora ham imkonsiz holatni bildiradi, biroq obrazli asos turlicha. Bu holat har bir xalqning milliy tasavvuri va madaniy tajribasi bilan bog'liq.

Ekvivalentsiz frazeologik birliklar esa muayyan til va madaniyat doirasida shakllanadi. Masalan, "To carry coals to Newcastle" iborasi Angliyaning tarixiy-geografik sharoitiga asoslangan bo'lib, ortiqcha yoki keraksiz ish qilish ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi "Do'ppisini osmonga otmoq" frazeologizmi esa milliy madaniyatga xos quvonch ifodasini bildiradi. Bunday birliklarni tarjima qilishda ko'pincha izohli yoki funksional muqobil usuldan foydalaniladi.

Strukturaviy jihatdan ingliz va o'zbek tillari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tili analitik til bo'lib, frazeologik birliklar ko'pincha fe'lli birikma shaklida qo'llanadi, masalan, "break the ice", "spill the beans", "kick the bucket". O'zbek tili esa agglutinatив til sifatida frazeologik birliklarni grammatik qo'shimchalar orqali turli shakllarda ifodalash imkoniyatiga ega. O'zbek tilida frazeologizmlar nafaqat fe'lli birikma, balki sifatlovchi birikma yoki butun gap shaklida ham uchraydi. Masalan, "Og'zi qulog'ida", "Ko'ngli tog'dek ko'tarildi" kabi birliklar tasviriy va emotsional xarakterga ega.

Lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinganda, frazeologik birliklar har ikki xalqning yashash tarzi va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Ingliz tilidagi ko'plab iboralar dengizchilik, savdo-sotiq va sanoat bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi frazeologizmlar ko'proq dehqonchilik, chorvachilik va

⁴ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). — М.: Высшая школа, 1972. — 639 с.; Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977. — С. 140–161;

⁵ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.

milliy urf-odatlar bilan chambarchas bog'langan. Bu farqlar tilning madaniyat bilan uzviy aloqadorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Frazeologik birliklarning funksional xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nutqqa obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallik bag'ishlaydi. Badiiy adabiyotda frazeologizmlar qahramon nutqini jonlantirish, muallif pozitsiyasini ifodalash va stilistik ta'sirni kuchaytirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Kundalik og'zaki nutqda esa ular fikrni qisqa va ta'sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi.

Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning to'g'ri talqini alohida e'tibor talab qiladi. So'zma-so'z tarjima ko'pincha ma'no buzilishiga olib keladi, chunki frazeologizmlarning asl ma'nosi ko'chma xarakterga ega. Shu sababli tarjimada kontekstni hisobga olish, semantik muvofiqlikni ta'minlash va zarur hollarda izohli tarjimadan foydalanish muhim hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar nutqga obrazlilik va ekspressivlik beradi hamda xalqning madaniy qadriyatlarini va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Har ikkala tilda to'liq va qisman ekvivalent birliklar mavjud bo'lib, bu ularning semantik o'xshashligini ko'rsatadi. Biroq struktura va madaniy obrazlarda farqlar seziladi: ingliz frazeologizmlari ko'pincha fe'lli birikma shaklida bo'lsa, o'zbek birliklari grammatik jihatdan moslashuvchan va milliy obrazlarga boy. Shu sababli tarjimada milliy xususiyatni hisobga olish muhimdir. Umuman, qiyosiy tahlil frazeologizmlarning til va madaniyatga oid universal hamda milliy jihatlarini ochib beradi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, tarjima jarayonidagi muammolarni tushunish hamda lingvomadaniy xususiyatlarni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Bally Ch. *Traité de stylistique française*. — Paris: Klincksieck, 1909. — 2 vol.

Kendjaeva, G. F. (2020). The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 9(89), 316-321.

KENJAYEVA, G. (2021). INTERPRETATION OF HOUSEHOLD REALITIES IN TRANSLATIONS OF A. KADIRI'S NOVEL "DAYS GONE BY". In *E-Conference Globe* (pp. 323-227).

Кенджаева, Г. Ф. (2021). МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В РОМАНЕ А. КАДЫРИ «МИНУВЩИЕ ДНИ». *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-2).

Fattilloevna, K. G. (2021). Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *JournalNX*, 7(09), 166-171.

Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.

Nurullayevna, S. N., & Nuriddinovna, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 269.

Salikhova, N. N. (2018). MACRO CLASSROOM MANAGEMENT WITH SHORTAGE OF BOOKS. *Теория и практика современной науки*, (3 (33)), 63-65.

Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 701-706.

Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Та'sirlangan ichak sindromida nevroitik buzilishlarni differensial taxlili va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish (Doctoral dissertation).

Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). Depressive-anxiety disorders in patients with rheumatoid arthritis and methods of their psychocorrection. *Interpretation and researches*, 2(3), 9-16.

АНАМИЯТИ, D., & Махаматжанова, N. M. FS Mirxaydarova. SM Mirxaydarova *Академические исследования в современной науке*, 2(7), 19-20.

- Hamraev, B., & Maxamatjanova, N. (2023). Modern methods of treatment of sexual disorders. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(15), 73-74.
- Gafurova, S. S., Sharodiya, D., & Alimuhamedova, S. J. (2025). TO IDENTIFY ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND STUDY THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY IN THEM.
- Xamdamovna, I. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA O'YIN ASOSIDAGI METODLARNING NAZARIY ASOSLARI. *IZLANUVCHI*, 1(6), 312-327.
- Xamdamovna, I. M. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF ASINDETONE SPECIES IN ENGLISH AND UZBEK. *Scientific progress*, 3(3), 397-400.
- Xamdamovna, I. M. (2025). HÖRVERSTÄNDNIS UND LESEN IN ENGLISCH PSYCHOLINGUISTISCHE KLASSIFIZIERUNG VON ÜBUNGEN FÜR SPRACHAKTIVITÄTEN. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(4), 103-107.
- ULUGBEKOVNA, R. S. (2020). The First Period of Washington Irving's.
- Нурмухаметова, С., & Расулова, С. (2022). The influence of Samuel Taylor Coleridge as a poet, critic and philosopher to english literature. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 39-40.
- Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей АИ Куприна 1890-1910 годах. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 502-504.
- Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 172-174. qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). THE ROLE OF PRAGMATICS FOR LEARNING ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Scientific Research*, 3(7), 51-56.
- qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CONCEPTS IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES. *International Journal American Journal of Modern World Sciences*, 2(7), 59-67.
- Nadjmiddinova, M. N. (2025, October). NEW INTERPRETATIONS OF THE TRANSLATION METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 7, pp. 112-116)*.
- Fayzullayeva, M. B. (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 131-134.
- Файзуллаева, М. (2023). Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова. *Общество и инновации*, 4(9), 295-298.
- Fayzullayeva, M. B., Sattarova, I. B., & Makhmudova, M. A. (2021). The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1632-1637.
- Akbaralievich, L. A. (2025). THE INFLUENCE OF ENGLISH LOANWORDS ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE. *SHOKH LIBRARY*, 1(12).
- Akbaralievich, L. A. (2023). CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE. *MATERIALLAR TO'PLAMI*, 390.
- Latipov, A. A. (2023). FINAL PHASE "TO STOP" AND THEIR EXPRESSIONS IN UZBEK LANGUAGE. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 192-195.
- Ибадуллаев, Ф. (2024). Сравнительный анализ образовательных систем Финляндии и Узбекистана. *Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов*, 1(1), 97-99.
- Ибадуллаев, Ф. Ф. (2016). Несколько записей о формирование текста. *Ученый XXI века*, (4-4 (17)), 46-48.

- Yuldasheva, S. (2020). Importance of using various pedagogical technologies in lessons. *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)*, 1(04), 126-128.
- Yuldasheva, S. T. (2021). Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher. *International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology*, 9(11).
- Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 426-428.
- JAMALOVA, N. (2020). BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 32(2).
- JAMALOVA, N. (2022). Pedagogical Conditions for the Development of Individual Characteristics of Students of a Higher Educational Institution.
- Turakhanov, R. (2025). Graphic systems of uzbekistan: historical foundations, contemporary challenges, and future development of alphabets. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 1196-1200.
- Turakhanov, R. (2025). THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN ISLAMIC LITERATURE: A MULTIDISCIPLINARY ANALYSIS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(3), 807-810.
- Васильченко, Л. А. (2024). В Міжнародний форум експертів із менопаузальної гормональної терапії.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ИЗМЕНЕНИЕ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТРИМЕСТРА БЕРЕМЕННОСТИ. *Confrencea*, 1(1), 198-200.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ОСОБЕННОСТИ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ. *Confrencea*, 1(1), 204-205.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. *БК 1 Р76*, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Advances in Science and Environment*, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Аспирант и соискатель*, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 526-532.
- Муминова, Н. А. (2014). Формирование гармонично развитой личности как цель воспитания в современном демократическом обществе. *Молодой ученый*, (9), 502-505.
- Djabbarov, X. D., & Muminova, N. A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. *Theoretical & Applied Science*, (1), 406-411.



- Madina, S. (2026). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE LEXICON RELATED TO INTERNET ADVERTISING. SCHOLAR, 4(1), 108-112.
- Cowie A. P. (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 272 p.